

## **TURISTIK VA REKREATSION XARITALARNI YARATISHDA GAT DASTURLARINING O'RNI (BAXMAL TUMANI MISOLIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10001586>

**Xudoynazarova Mavluda**

*assistant*

**Qudratov Jo'rabek**

*assistant*

**Davlatov Xayitboy**

*assistant*

*"TIQXMMI" MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti*

*Tel: +998 97-793-42-27*

*Ushbu maqolada turizm va rekreatsiya sohasida qilingan ishlarni xaritalashtirish masalalarida bugungi zamonaviy dasturlarning, ayniqsa, GAT ning ahamiyati yoritilgan.*

*В данной статье подчеркивается важность сегодняшних современных программ, особенно GAT, в картировании работы, проделанной в сфере туризма и отдыха.*

*This article highlights the importance of today's modern programs, especially GAT, in mapping the work done in the field of tourism and recreation.*

### **Kalit so'zlar**

*turizm, rekreatsiya, GAT, turistik xarita.*

Turizm va rekreatsiya bugungi kunda nafaqat mamlakat iqtisodiyotidagi, balki jahon iqtisodiyotidagi eng serdaromad sohalaridan hisoblanadi. Ko'pchilik mutaxassislar rekreatsiyaning asosiy maqsadi ta'lif va sog'lik deb hisoblashadi. Shu sababli rekreatsiya mamlakat uchun iqtisodiyotni rivojlantirishdan tashqari, aholining mehnat jarayonida yo'qotgan sog'lig'ini tiklash uchun zarurdir.

Ayni vaqtda jahon mamlakatlarining yalpi ichki daromadida turizm va rekreatsiya asosiy ulushni egallamoqda. Shu boisdan ham bugungi kunda hududlarning rekreatsion-turistik imkoniyatlarini tadqiq qilish, ularidan oqilona foydalanish masalalari dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

Doimiy ravishda mehnat bilan shug‘ullanish natijasida kishilar aqliy, jismoniy kuchini yo‘qotadi, mehnat unumdorligi pasayib ketadi. Doimiy mehnat sharoitida bo‘lish insonning sog‘lig‘iga ham ziyon yetkazadi. Tarixda mehnat jarayonini tashkil etish bilan ayrim muammolar vujudga kelgan. Ya’ni quldorlik davrlarida uzliksiz mehnat vaqt tashkil etilgan. Bunday vaziyat juda uzoq yillar mobaynida, aniqrog‘i yaqin o‘tmishgacha davom etgan. Keyinchalik jamiyat taraqqiyoti va ishchilarning huquqiy savodxonligi oshishi natijasida ish vaqtлari qisqarib, so‘ngra ishdan tashqari bo‘sh vaqt vujudga kelgan. 1948-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 24-moddasida shunday deyilgan: “Har bir inson ish vaqtini oqilona chegaralanishi va har yilga pullik ta’tilni olishi, dam olishi va bo‘sh vaqt huquqiga egadir”. Yuqoridagidan ko‘rinib turibdiki, inson huquqlarining 24-moddasida insonning dam olish huquqlari qat’iy belgilanib qo‘yilgan. Kishilar o‘zlarining bo‘sh vaqtlarini xohlagancha, xohlagan tarzda o‘tkazishi mumkin. Demak, insonlar mehnat jarayonida yo‘qotgan sog‘lig‘ini, ish qobilyatini qayta tiklash juda muhim. Buning uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldag‘i PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va tashqi turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Turizm va rekreatsiya sohalarini rivojlantirishda iste’molchi (turistga) ga turistik va rekreatsion xaritalarni taqdim etish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki har qanday geografik ilmiy tadqiqot xaritalashtirish bilan yakunlanadi. Turistik va rekreation xaritalarni yaratish uchun avvalo taqiqot obyekti tanlanishi zarur.


GAT texnologiyalaridan ma’lumotlarni tez yig‘ish, ularni tahlil qilish hamda integratsiya qilish, shuningdek natijalarni geografik jihatdan bog‘langan xaritalarni va hisobatlarni tahlil qilish ularni olish imkonini beradi. Faqatgina GAT va masofadan zondlash atrof-muhitni, shu bilan birga ko‘plab biofizik komponentlar o‘rtasida mavjud o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga kompleks yordam beradi [3].

So‘ngi yillarda masofadan zondlash hududlarni tez o‘sib borishi ularni potentseal nazoratini boshqarishda yordam beradi. Tabiiy xaflarni boshqarish, geografik jarayonlarni bashorat qilish yoki ma’lum hududning resurs imkoniyatlarini ochib berish uchun GIS ga asoslangan integratsiyalashgan strategiyadan foydalanish mumkin.

Yuqoridagi jarayonlarni Baxmal tumani misolida ko'rib chiqsak. Tumanning joylashgan geografik o'rni rekreatsiya va turizmni rivojlantirishda ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy tomoni shundaki, tuman tog'li hududda joylashgan. Tumanning relyefi hududda rekreatsiya va turizmni rivojlantirishda juda muhimdir. Tuman hududida joylashgan Turkiston tog' tizmasi va Morguzar (Molguzar) tog'i o'z bag'rida juda ko'plab rekreatsion-turistik obyektlarni sig'diradi. Turkiston tog' tizmasi tuman iqlimining shakllanishida ham muhim omil hisoblanadi. Bu rekreatsiyada juda muhimdir. Chunki tumanning salqin tabiatи rekreatnlarni yilning issiq davrlarida o'ziga jalb qiladi [1].

Har bir hududning ichki suvlari nafaqat rekreatsiya va turizmda balki iqtisodiyotning barcha sohalarida, aholining tumush tarzida ham muhim ahamiyatga ega. Tuman hududida bir qancha soy va iqmoqlar, juda ko‘plab buloqlar mavjud. Sangzor daryosi ham ushbu tuman hududidan boshlanadi [2].

BAXMAL TUMANINING REKREATSION-TURISTIK XARITASI




## 1-rasm. Baxmal tumani rekreatsion-turistik xaritasи

Birinchi rasmda ko'rsatilgan Baxmal tumanining rekreatsion-turistik xaritasi ham Ar GIS dasturi orqali yaratilgan. Ushbu xaritada turist va rekreatant uchun zarur bo'lgan barcha obyektlar haqidagi ma'lumot to'plangan hamda Ar GIS dasturi orqali saralangan ma'lumotlar xaritaga tushirilgan. Xaritaga tushirish jarayonida shartli belgilarni tanlash juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 1-rasmdagi xaritaning orqa fonida tabiiy xarita joylashtirilgan bo'lib, ushbu xaritaning

balandliklar shkalasida ranglar masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Chunki xaritaning rangi uning o'quvchanligini oshiradi.

Xarita yaratish jarayonida voqeа va hodisalarni shartli belgilar yordamida ifodalash alohida mahorat talab qilinadi. Mavzuli xaritalar juda mazmunga boy bo'lib. Bir dona xaritaning o'ziga juda ko'plab obyektlar tushiriladi. Ar GIS dasturida bizga taqdim etadigan begilar ro'yxati har doim ham barcha voqeа va hodisalarni aniq ifoda eta olmaydi (bu xususiyatlar asosan belgilar usuliga tegishli). Shuning uchun yangi bir belgini yaratish uchun yana bir zamonaviy Photoshop dasturiga murojat qilamiz. Photoshop dasturi yordamida biz mavzuga mos ayrim belgilarni yaratishimiz mumkin. Bu xarita o'quvchanligini yanada oshiradi. Barchamizga ma'lumki belgilar usuli geometrik, ramziy va harfli belgilarga bo'linadi. Ramziy belgilar o'quvchida juda tez tasavvur hosil qiladi.

Turistik va rekreatsion xaritadagi ayrim shartli belgilar Photoshop dasturi yordamida yaratilishi mumkin. 2-rasmda Photoshop dasturida xaritamiz uchun zarur bo'lgan ayrim shartli belgilarni yaratilish jarayoni ko'rsatilgan.



**2-rasm. Photoshop dasturida shartli belgilar yaratilishi**

Ushbu dastur yordamida shartli belgilarni yaratishning afzal tomoni shundaki, siz xaritangiz mavzusiga mos holda ijodiy yondasha olasiz va shartli belgilar sifati ham yuqori bo'ladi.

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, bugungi kunda barcha xaritalar zamonaviy GAT dasturlari orqali yaratilmoxda. Zamonaviy dasturlar ishslash jarayonida quyidagi qulayliklarni ta'minlaydi:

- ma'lumotlarni tez yig'ish,
- ularni tahlil qilish,
- ma'lumotlarni integratsiya qilish,
- biofizik komponentlar o'rtasida mavjud o'zaro bog'liqlikni o'rghanishga kompleks yordam beradi,
- natijalarni geografik jihatdan bog'langan xaritalarni va hisobatlarni tahlil qilish ularni olish imkonini beradi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Jizzax viloyatida turistik qishloq ovullarini yaratish yo'nalishlari va uning institutsional asoslari // Институциональное развитие взаимоотношений финансово-кредитной системы с реальным сектором экономики. Материалы XII международной научно-практической конференции 10-11 июня 2020 года. Самарканд -2020.
2. Jizzax viloyati Madaniy meros boshqarmasi ma'lumotlari.
3. Xudayqulov N. Qishloq xo'jaligi kartalarini tuzishda GAT qo'llash // Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI. - 2020.